

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Рахбархон Муртазаева OLIY TA'LIMNI GUMANIZATSIYA VA GUMANITARIZATSIYALASH: "OLTIN O'RTALIQ"NI IZLASH.....	4
2. Oygul Alshykenova QOZOG'ISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMNINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI: TARIX VA FAKTLAR.....	11
3. Aziza Aminova QUYI ZARAFSHON VOHASI IQTISODIY TARAQQIYOTINING O'RGANISH XUSUSIYATLARI.....	18
4. Бехзод Исабеков ТУНКАТ-ИМЛОҚ КЎХНА ШАХАР ХАРОБАСИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР.....	25
5. Jasurbek Karimjonov MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI MUKOFOTLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI.....	30
6. Қодиржон Нажмиддинов НАМАНГАН ШАХРИДАГИ ВИЛОЯТ ШИФОХОНАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	35
7. Нихола Нарзуллаева МУЛЛО САЙИД АХРОР МАҲДУМНИНГ ЎЛЧОВГА ОИД РИСОЛАСИ.....	41
8. Умирилло Ортиқов ЕТТИСУВ ВИЛОЯТИГА МЕТРОПОЛИЯДАН КЎЧИРИБ КЕЛТИРИЛГАН АҲОЛИНИНГ ЖОЙЛАШУВИ ВА ТУРМУШИ.....	45
9. Jurabek Polvonov МАНАЛЛИЙ ТАРИХЧИЛАР АСАРЛАРИ ВА КУНДАЛИКЛАРИДА ХИВА ХОНЛИГИДА НАРБИЙ БОШҚАРУВ ВА МУДОФАА ТИЗИМИ.....	51
10. Abdilatip Sarimsokov FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARINING KUZ FASLIDA O'TKAZILGAN TAQVIMIY URF-ODAT VA MAROSIMLARI.....	59
11. Mahfuzaxon Shamsiyeva MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN O'ZARO HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI.....	65
12. Saida Hakimova RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN OROL DENGIZINING O'RGANILISHI (L.BERG EKSPEDITSIYASI MISOLIDA).....	70



Jasurbek Karimjonov,
O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasi o'qituvchisi

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI MUKOFOTLASH TIZIMINING SHAKLLANISHI

For citation: Jasurbek Karimjonov, THE FORMATION OF THE YOUTH REWARD SYSTEM IN INDEPENDENT UZBEKISTAN. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 11, pp.30-34

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10157291>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada Mustaqil O'zbekistonda aholining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarni iste'dodlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis etilgan mukofotlar hamda ularning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalar rivojiga qo'shayotgan hissasi huquqiy asoslari orqali bayon qilingan. Shuningdek, ushbu ta'sis etilgan mukofotlar kimlarga, necha yoshdan va qaysi xizmatlari uchun berilishi, ko'krak nishonlari tavsifi, taqdirlash tartiblari, mukofot pullari, yillar kesimida taqdirlanganlar statistikasi hususida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat mukofoti, ko'krak nishoni, O'zbekiston belgisi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, Nihol mukofoti, Ilhom mukofoti, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti, Mard o'g'lon, taqdirlash.

Жасурбек Каримжонов,
Исторический факультет
Национального университета Узбекистана
Преподаватель кафедры новейшей истории Узбекистана

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВОЗНАГРАЖДЕНИЯ МОЛОДЕЖИ В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье описаны премии, учрежденные в целях всесторонней поддержки талантов молодежи, составляющей большинство населения независимого Узбекистана, и их вклад в развитие экономической, социальной и культурной сферы страны. через правовую основу. Кроме того, проанализированы награды, кому, в каком возрасте и за какие заслуги были вручены, дано описание нагрудных знаков, порядок награждения, размер премий, статистика награжденных по годам.

Ключевые слова: государственная награда, значок, символ Узбекистана, Союз молодежи Узбекистана, Государственная премия Зульфии, Премия Нихала, Премия Вдохновение, международная премия имени Мухаммада Аль-Хорезми, Отважный мальчик, премия.

Jasurbek KarimjonovFaculty of History of the National University of Uzbekistan
Teacher of the newest history department of Uzbekistan**THE FORMATION OF THE YOUTH REWARD SYSTEM IN INDEPENDENT UZBEKISTAN****ABSTRACT**

In this scientific article, the awards established for the purpose of comprehensively supporting the talents of young people, who make up the majority of the population in independent Uzbekistan, and their contribution to the development of the country's economic, social, and cultural spheres are described through the legal basis. In addition, the established awards were given to whom at what age and for what services, description of badges, award procedures, award money, and statistics of awardees by year.

Index Terms: state award, badge, symbol of Uzbekistan, Youth Union of Uzbekistan, Zulfia State Award, Nihal Award, Inspiration Award, international award named after Muhammad Al-Khorazmi, Brave Boy Award.

1.Dolzarbli:

O'zbekiston Respublikasi aholisining katta ulushi yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni o'z iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, vatanimiz nufuzini yuksaklarga ko'tarishlarini rag'batlantirish maqsadida bir qancha mukofotlar ta'sis etilgan. Jumladan, O'zbekiston belgisi, Zulfiya, Nihol, Ilhom, Mard o'g'lon, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofotlar hozirda yoshlarni rag'batlantirishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu davlat mukofotlari mustaqillik yillarida ta'sis etilganli, kelajagimiz egalari hisoblangan yoshlarni vatanparvar, yurt kelajagiga dahldor etib tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa mukofotlash jarayonlaridagi yangi bosqich sifatida muhim o'rin egallab kelmoqda.

2.Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mazkur ilmiy maqolada xolislik, haqqoniylik, g'oyaviylik, vatanparvarlik, tarixiylik, statistik qiyosiy tahlil kabi usul hamda metodlardan foydalanilgan. Mustaqillik davriga oid ekanligi hamda ilk bor tadqiq etilayotganligi hisobga olinsa, asosan davriy nashrlar hamda qonunlar to'plamida mavzuga doir ma'lumotlar qayd etilgan. Xususan, turli yillarda tegishli qonunlar bilan bir qator mukofotlar joriy qilinadi. Shunday mukofotlardan biri bu 1997-yil ta'sis etilgan "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni hisoblanadi[14. 94-98]. "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni bilan milliy ma'naviyat, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar negizida yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoyilik tuyg'usini va mehnatsevarlik fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan, Vatanimiz obro'si, shon-shuhrati va sharafiga yuksaltirishga hamda uning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, namuna ko'rsatayotgan yoshlar taqdirlanadi. Ushbu ko'krak nishoniga nomzodlar O'zbekiston yoshlar ittifoqining quyi tashkilotlari va jamoatchilik tomonidan taqdim etiladi hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining qarori asosida beriladi. "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishoni hamda uning guvohnomasi taqdirlanganlarga tantanali vaziyatda O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining raisi tomonidan topshiriladi hamda ko'krakning chap tomoniga taqiladi. Ko'krak nishoni 1,0 mikron qalinlikdagi oltin bilan qoplangan 925 probali kumushdan tayyorlanadi va diametri 22 millimetrni tashkil etadigan halqadan iborat bo'ladi. Nishonda Humo qushi tasviri aks ettirilgan. Humo qushining tepasida davlat gerbining ramzi - musamman aks ettiriladi. Shuningdek, O'zbekiston yozuvi bitilgan bayroq aks ettirilgan[10.163-165].

Ushbu nishon bilan ilk bor 1997-yil grossmeyster Rustam Qosimjonov[2.213], boks bo'yicha Ruslan Chagayev[2.217] hamda Artur Grigoryanlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov[3.62] taqdirlangan. 1998-yil bir guruh sportchilar ushbu nishon bilan taqdirlanadilar[4.39-41]. 2000-yil PF-2541 farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq deputatlariga ushbu ko'krak nishon beriladi[5.52]. 2003-yil 4-avgustdagi PF-3290

sonli “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida farmon qabul qilinadi[6.3].

3. Tadqiqot natijalari:

Ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko‘rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo‘lgan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o‘rnini yana bir bor e’tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san’at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqloq g‘oyalari va madaniy-ma’naviy qadriyatlarga e’tiqodining yuksalishi yo‘lidagi ibratli faoliyati, keng ko‘lamli islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish maqsadida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etiladi. Mukofot ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri vakillariga ikkitadan har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida beriladi[6.64].

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida tayinlanadi. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining laureatlari bo‘lgan o‘quvchilari oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga, bakalavriat talabalari esa oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga tegishli yo‘nalish va ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi qoshida jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatadi hamda unga qo‘mita raisi rahbarlik qiladi[12.226-228].

Yosh iste’dod egalarining jamiyatimiz ma’naviy hayotini yuksaltirishdagi muhim o‘rnini inobatga olib, o‘zining musiqa, matn va ijro mahorati bilan odamlarning yuragiga yetib boradigan, ezgulikka chorlaydigan, iroda va imon-e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan asarlar yaratishda faollik ko‘rsatayotgan iqtidorli yoshlarni muntazam rag‘batlantirib borish maqsadida 2000-yil 25-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Nihol” mukofotini ta’sis etish to‘g‘risida 334-son qaror qabul qilinadi[13.1-2]. 2006-yil 9-avgustdagi 169-son qaroriga muvofiq “Nihol” mukofoti to‘g‘risida nizom qabul qilinadi. Ushbu nizomga muvofiq, “Nihol” mukofoti iste’dodli yoshlarning jamiyatimiz ma’naviy hayotini yuksaltirishdagi muhim o‘rnini inobatga olib, o‘zining estrada, musiqa, mumtoz qo‘shiq, raqs va opera san’ati ijrochiligi sohasidagi mahorati bilan odamlarning yuragiga yetib boradigan, yoshlarni ezgulikka chorlaydigan, ularni ma’naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlar yaratishda faollik ko‘rsatayotgan 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli yoshlarni muntazam rag‘batlantirib borish maqsadida beriladi. Nomzodlar jami beshta nominatsiya - estrada, musiqa, mumtoz qo‘shiq, opera ijrochiligi va raqs san’ati bo‘yicha tanlovlar orqali saralanadi. “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari tanlovda ishtirok etmaydilar. Tanlovning birinchi bosqichi (aprel-may) Respublikaning tuman va shaharlarida tanlovning birinchi yilida o‘tkaziladi. 2-bosqich (oktyabr-noyabr) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri komissiyasi ko‘rik-tanlov yakuniga ko‘ra 4 nafargacha nomzodni tanlab olib, Respublika kengashiga taqdim etadi va bu jarayon tanlovning birinchi yilida o‘tkaziladi. 3-bosqich (iyun-avgust) Respublika kengashi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan taqdim etilgan nomzodlarning ijodiy ishlarini ko‘rib chiqadi. Respublika kengashi barcha yo‘nalishlar bo‘yicha nomzodlarni tanlab, ularning ijodiy ishlarini ko‘rib chiqadi va tanlov asosida sovrindorlarni belgilaydi. 3-bosqich tanlovning ikkinchi yilida o‘tkaziladi. Har bir bosqich g‘oliblari navbatdagi bosqichda o‘zlarining yangi repertuarlari (yangi qo‘shiq va kuy va h. k.) bilan ishtirok etishlari shart etib belgilangan.

“Nihol” mukofoti har ikki yilda bir marta (2011-yilgacha har yili) Mustaqillik bayrami arafasida, avgust oyining oxirgi o‘n kunligida tantanali vaziyatda topshiriladi. “Nihol” mukofoti o‘z ramzi aks ettirilgan sovrin va eng kam oylik ish haqining 70 baravari miqdoridagi pul mablag‘idan iboratdir. “Nihol” mukofotiga sazovor bo‘lgan yoshlar madaniyat, san’at yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga imtiyozli ravishda qabul qilinadi (ansambl, jamoa sifatida ishtirok etganlar bundan mustasno), mamlakatning atoqli san’atkorlaridan saboq olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sovrindorlarining ro‘yxati Mustaqillik bayrami arafasida ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi[9.28]. Nihol mukofotining 2000-yildagi ilk sovrindorlari: Sevara Nazarxon-estrada

xonandasi Sodiqov Tohir-estrada xonandasi, Ibragimov Izzatilla-estrada xonandasi, Abdulaziz Karim-estrada xonandasi, “Setora” guruhi Mirzaiddinova Feruza Xo’jayeva Komila, Galiyeva Laylo-estrada guruhi, Rahmatova Nilufar-estrada xonandasi, Rahimova Dilfuza-estrada xonandasi, Guzairova Anna-akademik xonanda, Nazarov Dilshod-violonchel cholg’u ijrochisi, Abdullayeva Gulshoda-raqqosa hisoblanadi.

2020-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 503-sonli qaroriga muvofiq, oliy ta’lim muassasalarida shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodini chuqur o‘rganishni samarali tashkil etish, yoshlarning adabiyotga qiziqishini yanada oshirish, ularni kitob o‘qishga da’vat etish va shu asosda ularning qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining “Ilhom” mukofoti ta’sis etiladi.

“Ilhom” mukofoti shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodini o‘rganish, ularning asarlarini tarjima qilish, shu asosda tadqiqotlar o‘tkazish, kino va sahna asarlari yaratish kabi ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijodiy jarayonlarda eng yuqori natijalarga erishgan oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan hamda faoliyat yuritayotgan yoshlarga berilib, mukofot bilan taqdirlash har yili Adiblar xiyoboni ochilgan kun - 20 mayda “Katta adabiyot bayrami” haftaligi doirasida amalga oshiriladi. Tanlov g‘oliblari 3 nafarni tashkil etib, maxsus diplom va statuetka shuningdek, 1-o‘rin uchun - O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan Spark avtomobili, 2-o‘rin uchun - 30 mln. so‘m pul mukofoti va 3-o‘rin uchun - 15 mln. so‘m pul mukofoti topshiriladi. Tanlovda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, respublikamizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari ishtirok etishi mumkin. Tanlov ikki bosqichda dastlabki saralash va asosiy tanlov shaklida o‘tkaziladi. Dastlabki saralash bosqichi nomzodlar tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ishchi guruhlar tomonidan amalga oshirilib, nomzodlar oliy ta’lim muassasasi miqyosida test savollari orqali saralanadi. Test savollari 50 ta savoldan iborat bo‘ladi. Test savollari oliy ta’lim muassasalariga har yili 15 martga qadar taqdim etiladi. Dastlabki saralash bosqichi test savollari olingandan so‘ng bir kun ichida o‘tkazilishi lozim. Test natijalariga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan uch nafar nomzod oliy ta’lim muassasasi rektorining taqdimnomasi asosida keyingi bosqichda ishtirok etishi mumkin. Shoir va yozuvchilar hayoti hamda ijodi asosida kino va sahna asarlari yaratgan, adiblar hayoti va ijodi haqida ilmiy-ommabop tadqiqotlar o‘tkazgan, ularning asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilgan yoshlarga oliy ta’lim muassasasi rektorining taqdimnomasi, istisno tariqasida, test sinovlarisiz berilishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida saralangan nomzodlarning hujjatlari rasmiylashtirilib, 15 aprelga qadar tashkiliy qo‘mitaga taqdim etiladi. Tashkiliy qo‘mita tomonidan bir oy davomida taqdim etilgan ishlarning ijtimoiy ahamiyati, mavzuning yoritilishi, talqinning o‘ziga xosligi, asarning badiiyligi mezonlari bo‘yicha har bir talab 5 ballik tizimga binoan xolislik va shaffoflik asosida baholanadi. Eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar darajasi bo‘yicha g‘olib deb topiladi. Mukofot bilan taqdirlanganlar keyingi yillarda o‘tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etmaydi[10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-maydagi PQ-4708 son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti ta’sis etiladi. Ushbu mukofot bilan matematika sohasida fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra amaliyotdagi muayyan muammoning yechimini taklif etgan olimlar jumladan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar yakka tartibda taqdirlanadi. Mukofot ikki yilda bir marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashining taklifiga ko‘ra uchta yo‘nalish (fundamental sohadaqi tadqiqot, yoshlar o‘rtasidagi tadqiqot va iqtisodiyotning real sektoridagi muammoning yechimini ta’minlagan tadqiqot) bo‘yicha beriladi.

Mukofotga sazovor bo‘lganlarga 50 ming AQSh dollari ekvivalentidagi bir martalik pul mukofoti tantanali ravishda topshiriladi. Mukofotga sazovor bo‘lgan shaxslarga Matematika jamiyati tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, O‘zbekistonlik olimlar bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borish hamda matematika sohasida qilgan ilmiy-tadqiqotlari

natijalarini, jumladan, mukofot topshirilgan ishlari natijalarini O'zbekistonda qo'llash tavsiya etiladi[11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-noyabrdagi "Mard o'g'lon" davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3402 sonli qarori bilan ta'sis etiladi. Ushbu davlat mukofoti o'qishdagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy faolligi va iste'dodi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan iqtidorli yigitlarga fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, adabiyot, san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida hamda huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun beriladi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining "Mard o'g'lon" davlat mukofoti Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 2 nafardan vakillariga har yili "Yoshlar kuni" arafasida topshiriladi. "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida belgilangan. "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichiga, oliy o'quv yurtlari talabalari yoki bakalavr darajasiga ega yoshlar esa magistratura bosqichiga tegishli yo'nalish bo'yicha kirish imtihonlarisiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar. Davlat mukofotining ko'krak nishoni ko'krakning o'ng tomoniga taqiladi.

"Mard o'g'lon" davlat mukofotining ko'krak nishoni 0,25 mikron qalinlikdagi oltin bilan qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va sakkiz qirrali bo'rtma yulduz shaklida bo'ladi. Ko'tarilayotgan quyosh nurlari fonida vatanparvarlik va jasorat timsoli sifatida tulpor ustidagi mard o'g'lon tasviri hamda yurtimizning go'zal va betakror tabiatini ifodalovchi ulug'vor tog'lar, ikki daryo va ko'rkam vodiylar aks ettirilgan. Suvoriy tasvirining yuqori qismida davlat bayrog'ining tasviri, ko'krak nishonining pastki qismida Mard o'g'lon yozuvi, orqa tomonida esa davlat gerbi tasvirlangan[7].

4.Xulosalar:

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, yoshlarning iste'dodini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga davlat darajasida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu esa yoshlarni ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalaridagi yutuqlarining ko'payishiga xizmat qilmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, mukofotlash jarayonlari ma'lum tartib qoidalar bilan me'yorga solinishi, yoshlarimizni yanada izlanuvchan va ko'proq bilim olishga undamoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997. 9-son. – B. 265.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998. 1-son. – B. 262.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998. 8-son. – B. 301.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000. 2-3-son. – B. 269.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003. 8-son. – B. 297.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006. 2-son. – B. 304.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mard o'g'lon" davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-3418697>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari (1995-1999). 4-jild. – Toshkent: Adolat, 2000. – B. 165.
9. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil, 31-32-son. – B. 280
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilhom" mukofotini ta'sis etish to'g'risidagi Qarori <https://lex.uz/docs/-4966474>.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti bilan taqdirlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" Qarori <https://lex.uz/docs/-5075739>.
12. O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari. Qonun hujjatlari. /Tuzuvchi: Sh.N.Ro'zinazarov. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 298.
13. O'zMA, M-38-fond, 1-ro'yxat, 26- yig'majild. 1-2-varaq.

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 6, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST
VOLUME 6, ISSUE 11

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000